



XALQARO ALOQALARNI RIVOJLANTIRISHDA YUKLARNI TASHISHNI TASHKIL ETISHNI AHAMIYATI

Muqimova Davlatxon Karimovna,

“Transport vositalari muhandisligi” kafedrasida dotsenti,

Hasanov Firdavs Husen o‘g‘li,

“Transport vositalari muhandisligi” yo‘nalishi 3-kurs talabasi.

Andijon mashinasozlik instituti, Andijon shahar, O‘zbekiston

Moddiy va ularga hamrohlik qiladigan oqimlarning vujudga kelishi, o‘zgarishi logistika nuqtai nazaridan to‘laqonli tizim, ya’ni uning oldiga qo‘yilgan maqsadni amalga oshiradigan va bu ma’nodagi yaxlit bir butunlik kabi tavsiflanadigan tizim sifatida ko‘rib chiqiladigan ma’lum bir iqtisodiy ob’yektda ro‘y beradi. Mohiyatan gap moddiy oqimga nisbatan qo‘llanadigan harakatlar yig‘indisi haqida bormoqda. Logistika faolliklari – qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirayotgan to‘laqonli logistika tizimida moddiy oqimga nisbatan qo‘llanadigan harakatlar. Bunda quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi: logistika operatsiyalari, yoki elementar logistika faolliklari (ordinary logistics activity); logistika funktsiyalari, yoki kompleksli logistika faolliklari (complex logistics activity) [1,2,6-9].

Logistika operatsiyasi – moddiy va unga hamrohlik qiladigan axborot, moliya va servis oqimlari vujudga kelishi va o‘zgartirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan menejment yoki qo‘yilgan tadqiqot vazifalari doirasida yanada dekompozitsiya qilinishi lozim bo‘lgan har qanday harakat. Logistika operatsiyalari qatoriga moddiy resurslar yoki tayyor mahsulot bilan amalga oshiriladigan yuklash, tushirish, idishga joylash, tarqatish, tashish, saqlash, bojxona rasmiylashtiruv, sug‘urta kildirish va boshqa harakatlar kiradi. Hamrohlik qiladigan oqimlar bilan bog‘liq logistika operatsiyalari sifatida moddiy oqim haqida axborot to‘plash, saqlash va uzatish, tovarlar ta’minotchilari va xaridorlari bilan hisob-kitoblar, bojxona to‘lovlari to‘lash va h.k. namoyon bo‘ladi. Logistika tizimiga kirib keladigan yoki uni tark etadigan moddiy oqim bilan logistika operatsiyalari bajarish xudi shu operatsiyalarni logistika tizimi ichida Logistika faolliklari Logistika funktsiyalari Logistika operatsiyalari: yuklash, tushirish, taraga joylash, jo‘natish, tashish, saqlash, bojxonada rasmiylashtirish, sug‘urtalash, bir yerga to‘plash va b. Bazis funktsiyalar: ta’minot, ishlab chiqarish, sotuv Asosiy funktsiyalar: xaridlarni boshqarish, transport vositasida tashish, iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish standartlarini qo‘llabquvvatlash, tayyor mahsulot va moddiy resurslar zaxiralarini boshqarish, buyurtma berish jarayonlarini



boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish, narx shakllantirish, jismoniy taqsimot Yordamchi funksiyalar: omborga joylashtirish, yukni qayta ishlash, himoyaviy qadoqlash, tara qaytarilishini ta'minlash, servis xizmatlari ko'rsatish va ehtimol qismlar bilan ta'minlash, qaytariladigan chiqitlarni to'plash, axborot-kompyuter ko'magi bajarishdan farq qiladi. Bu tovarga egalik huquqi sug'urta risklarining bita yuridik shaxsdan boshqasiga o'tishi bilan izohlanadi. Bu belgi bo'yicha barcha logistika operatsiyalari bir tomonlama va ikki tomonlama operatsiyalarga ajratiladi [3-5, 10-17].



1-рasm. Logistika operatsiyalari tasnifi

Ayrim logistika operatsiyalari mohiyatan texnologik ishlab chiqarish jarayonining davomi hisoblanadi (masalan, qadoqlash). Ular tovarning iste'mol xususiyatlarini o'zgartiradi va ishlab chiqarish sohasida ham, muomala sohasida ham amalga oshirilishi mumkin bo'ladi. Korxonani ta'minlash yoki tayyor mahsulot sotish jarayonida bajariladigan logistika operatsiyalari (logistika tizimining tashqi muhit bilan o'zaro aloka jarayonida bajariladigan operatsiyalar) tashqi logistika operatsiyalari toifasiga kiradi; ularni bajarish xarakteriga atrof-muhit noaniqligi ta'sir ko'rsatadi. Logistika tizimi ichkarisida bajariladigan logistika operatsiyalari ichki operatsiyalar deb ataladi [16-20].

Moddiy oqimlarni ilgari surish bilan bog'liq logistika faolliklari amaliyotda qoidaga ko'ra, xilma-xil texnikalarni (transport vositalari, yuklash-tushirish qurilmalari va h.k.) qo'llagan holda malakali personal tomonidan amalga oshiriladi. Logistika tizimi – bir nechta quyitizimdan iborat va tashqi muhit bilan rivojlangan aloqalarga ega bo'lgan, u yoki bu logistika funksiyalari yoki logistika



operatsiyalarini bajaradigan moslashuvchan tizimdir. Logistika tizimlariga, qoidaga ko'ra, ularni tahlil va sintez qilishga tizimli yondashuvni qo'llash imkonini beradigan murakkab (katta) asosiy jihatlar xos bo'ladi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat: ko'p sonli elementlar (bo'g'inlar) mavjudligi, alohida elementlar o'rtasida o'zaro aloqalar jarayoni ko'p omilliligi, ko'p pog'onali ma'murchilik tizimi, stoxastika kuchlari va omillarining tashqi muhitga ta'siri kabi belgilar bilan tavsiflanadigan murakkablik; strukturalanganlik – berilgan maqsadni amalga oshirayotgan boshqaruv ob'yektlari va sub'yektlaridan iborat bo'lgan ma'lum bir tashkiliy struktura mavjudligi; ierarxiklik –chiziqli yoki funktsional logistika boshqaruvi doirasida quyiroq pog'onadagi elementlarning yuqori pog'onadagi elementlarga bo'ysunishi; emerjentlik – berilgan maqsadli funktsiyaning alohida element yoki quyitizimlar bilan emas, balki butun tizim tomonidan amalga oshirilishi. Logistika chiqishda berilgan ko'rsatkichlar bilan moddiy oqimlarga ega bo'lgan uyg'unlashtirilgan, muvofiqlashtirilgan logistika tizimlarini loyihalashtirish vazifasini qo'yadi va hal etadi.. Makrologistika tizimlari quyidagicha tasniflanishi mumkin: globallik belgisi bo'yicha – davlat (transmilliy), davlatlararo (xalqaro), transkontinental tizimlar; mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishi belgichi bo'yicha - tuman, tumanlararo, shahar, viloyat va o'lka, mintaqqa, mintaqalararo, respublika, respublikalararo tizimlar; ob'yektli-funktsional belgi bo'yicha – bitta yoki bir nechta tarmoq, idoraga qarashli, tarmoqlararo, savdo, harbiy, institutsional va h.k. korxonalar guruhlari [19-26].

Adabiyotlar:

1. А.А. Гайдаенко, О.В. Гайдаенко. Логистика: учебник 2-е изд.— М.: КНОРУС, 2009–277 с.
2. Неруш Ю.М. Логистика : учебник. 4-е изд. – М.: ООО «Изд. Проспект», 2006. – 520б.
3. Гаджинский А.М. Логистика: Учебник. – 13-е изд., перераб. И доп. – М.: «Дашков и К°», 2006. – 432 с.
4. Канке А.А.КашеваяИ.П. Логистика: учебник ФОРУМ-ИНФРА— М.:2005. -350с.
5. Qoriyeva Yo.K. Globallashuv jarayonida xalqaro transport logistik tizimi faoliyatining samaradorligi. – T.: TDIU, 2003. – 147b.
6. Muqimova D., Nurdinov M. Compliance with responsibility and work regimes of drivers in legal regulatory documents due to accidents in the transportation of international goods by trucks //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – T. 1. – №. 2. – С. 15-25.



7. Muqimova D. et al. LOCATION AND DEVELOPMENT OF THE MAIN NETWORKS OF WORLD TRANSPORT //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 279-284.
8. MUQIMOVA D. K. et al. Analysis of the Current State of Population Growth and Level of Vehicle Ownership //Texas Journal of Engineering and Technology. – 2022. – Т. 13. – С. 22-28.
9. Imomkulov K. B., Mukimova D. K. The motivation parameters of wedge-shaped disk of the machine for preparing plow by flap to sowing //Scientific-technical journal. – 2018. – Т. 1. – №. 3. – С. 145-147.
10. Мукимова Д. Influence of the thickness of the roller discs of the combined machine on the indicators of their work during the processing of plowed lands afterwards //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – iopscience, 2022.
11. Мукимова Д. К. Обоснование ширины междуследия дисков катков комбинированной машины //European research: innovation in science, education and technology. – 2020. – С. 13-16.
12. Igamberdiev A. K., Muqimova D. K. DETERMINATION OF THE RATIONAL VALUES OF THE PARAMETERS OF THE DISC ROLLERS OF THE COMBINED UNIT //Irrigation and Melioration. – 2020. – Т. 2020. – №. 3. – С. 67-72.
13. Mukimova D. DISTINCTIVE FEATURES OF SOIL TREATMENT BEFORE PLANTING //Science and innovation in the education system. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 40-44.
14. Nurdinov M., Muqimova D. RECOMMENDATIONS FOR THE DESIGN OF SAFE PARKING SPACES FOR TRAFFIC ACCIDENTS AND TRUCKS //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 147-155.
15. Karimovna M. D. AVTOMOBILSOZLIKDA YONILG'I MUAMMOLARINI O'RGANISH //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 10. – №. 2. – С. 27-34.
16. Kosimova M., Muqimova D., Akramaliyev O. BASING THE PARAMETERS OF CONTACT WELDING COATING OF FORMED POWDERY COMPOSITE TAPE TO THE SURFACE OF A FLAT PART //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 5 Part 4. – С. 190-195.
17. Karimovna M. D. et al. TRANSPORT TEXNIK HOLATINI ANIQLASH USULLARI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 8. – №. 4. – С. 42-45.
18. Karimovna M. D. et al. COMPUTER DIAGNOSTICS OF CARS //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 8. – №. 4. – С. 38-41.



19. Karimovna M. D. et al. OLDINGI KO'PRIGI TORTUVCHI YENGIL AVTOMOBILLARDA UCHRAYDIGAN NOSOZLIKLARNI ANIQLASH VA ULARNI BARTARAF ETISH TEXNOLOGIYASI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 8. – №. 4. – С. 34-37.
20. Karimovna M. D. AVTOMOBILLARDA QO 'LLANILADIGAN ASHYOLANING EKOLOGIK MUHOFAZASI, EKOLOGIYAGA TA'SIRI //Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 280-283.
21. Xalilbek o'g'li X. E., Bobirxon o'g'li U. B., Xalimjonov E. X. LOGISTIK KORXONALAR FAOLIYATINI O'RGANISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH JARAYONLARI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 8. – №. 4. – С. 89-92.
22. Xalilbek o'g'li X. E., G'anijon o'g'li V. J., Xalimjonov E. X. CHORRAHALARDA TRANSPORT VOSITALARINING TIRBANDLIGINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 8. – №. 4. – С. 99-104.
23. Xalilbek o'g'li X.E. et al. SHAHAR MARKAZLARIDAGI CHORRAHALARDA YO'L TRANSPORT HODISALARINI VUJUDGA KELISHIDA SVETOFORLARNING O'RNI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 8. – №. 4. – С. 93-98.
24. Abdusamat Y., Nigora A., Javohir X. ПОВЫШЕНИЕ КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ СТУДЕНТА ОБЪЕКТИВНО С НАУЧНЫМИ ИССЛЕДОВАНИЯМИ INCREASING ASSESSMENT CRITERIA OF THE STUDENT KNOWLEDGE OBJECTIVELY WITH SCIENTIFIC RESEARCH //Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по естественным наукам. Подробнее на [www. t](http://www.t). – Т. 2. – С. 118.
25. Юлдашев А. Avtomobillarning erkin va majburiy tebranishlar sinovi apparati (tm 155) yordamida tahlil qilish //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
26. Yuldashev A., Abdumuminova N., Xalimov J. ПОВЫШЕНИЕ КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ СТУДЕНТА ОБЪЕКТИВНО С НАУЧНЫМИ ИССЛЕДОВАНИЯМИ //Точная наука. – 2018. – №. 26. – С. 113-115.